



QO‘G‘IRCHOQ TEATRI SAN‘ATIDA TIJORATLASHTIRISH MASALALARI

Avezov Mirzo Ulug‘bek Komiljon o‘g‘li
O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti
4-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Nursayitov Akbar Ixtiyorovich
O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti o‘qituvchi

Annotatsiya: O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligini e‘lon qilinishi O‘zbekiston teatr san‘ati faoliyatida, jumladan qo‘g‘irchoq teatri faoliyatida milliy istiqlol g‘oyasiga asoslangan yangi vazifalar qad ko‘tardi. Yangi avlodni, mustaqillik mafkurasini ongi va qalbi bilan tarannum etuvchi barkamol yoshlar qilib tarbiyalash davrning ma‘naviysiyosiy vazifasi bo‘lib qoldi. Yangicha dunyoqarashga ega, milliy o‘zligini chuqur his etuvchi fuqarolarni shakllantirishda san‘atlar, xususan teatr san‘atining o‘rni beqiyos, ahamiyati ulkan.

Kalit so‘zlar: qo‘g‘irchoq teatri; tijoriy maqsad; teatr san‘ati.

Ma‘lumki, teatr san‘ati ma‘naviyatning eng yorqin, ta‘sirchan ko‘rinishlaridan biridir. Zero, u tomoshabinlarga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Sahna bilan tomoshabinlar o‘rtasida samimiy bog‘lanish, muloqot hosil bo‘lib, ham sahna ijodkorlarini, ham tomoshabinlarni ma‘nan boyitadi, ruhini sozlaydi, ko‘nglini ko‘taradi. Darhaqiqat, teatr ma‘lum millatning o‘zligini, orzu-intilishlarini, tarixini, kelajagini, urf-odatlarini, qadriyatlarini badiiy obrazlar orqali ifoda etuvchi beqiyos san‘atdir. Qolaversa, milliy mafkura, milliy g‘urur, vatanparvarlik, e‘tiqod, millatlararo do‘stlik va totuvlik, insoniylik, mehr-sahovat, odo-axloq masalalarini yoritishda teatr boshqa barcha san‘at turlardan ta‘sirliroq, kuchliroq va jozibaliroq imkoniyatga ega. Shunday ekan, har qaysi xalq teatrnii milliy kolorit asosida shakllantirishga intiladi. Shu orqali, xalqning qalbi va ongiga ta‘sir o‘tkazishni istaydi. Teatr tarixiy an‘analar va yuksak insoniy fazilatlar bilan bevosita bog‘langan. Qo‘g‘irchoq teatrlarida mana shu badiiylikni tomoshabinga yetkazuvchi aktyorlar jamoasining faoliyatini tavsiflash, munosabat bildirish, tahlil qilish keyingi avlod teatrlari va teatr ijodkorlari uchun o‘zining samarali ta‘sirini ko‘rsatadi. Qo‘g‘irchoq teatri bizning mamlakatimizda katta shuhrat qozongan. Teatr sa‘atining bu janr ildizlari qadimda folklorga, an‘anaviy xalq teatri san‘ati oqimlariga borib taqalgan. Umuman olganda, ibrat



bo‘la olish, namuna ko‘rsatish yo‘li bilan kattalar va bolalarning ruhiyatiga ta‘sir o‘tkazishda san‘atning ahamiyati muhim ekanligini eramizdan avvalgi IV-V asrlardayoq ajdodlarimiz anglab yetgan ko‘rinadi. Qo‘g‘irchoqlar orqali nafaqat bolalarga, balki kattalarga ham ta‘sir o‘tkazib kelinganligi Gerodot, Mark Avreliy, Aristotel kabi qadimgi tarixchi va allomalarning asarlarida keltirilgan. Dunyoning barcha qit‘alarida qo‘g‘irchoq teatrining o‘ziga xos an‘analari mavjud bo‘lib, ular bir necha asrlik tarixga ega. Ulardan, marionetka (iplar yordamida boshqariladigan qo‘g‘irchoq), petrushka (qo‘lqop sifatida qo‘lga kiyiladigan qo‘g‘irchoq), mexanik tarzda boshqariladigan qo‘g‘irchoqlar, planshetli (ochiq tarzda o‘ynatiladigan), soyasi tushiriladigan qo‘g‘irchoqlar dunyoning barcha rivojlangan qo‘g‘irchoq teatrlarida qo‘llanila boshlangan. Qo‘g‘irchoq teatri ijro uslubiyatining o‘ziga xos sistemasi, ya‘ni “Aktyor - uning qo‘llari-qo‘g‘irchoq” - o‘ziga xos oluvchi va beruvchi jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Qo‘g‘irchoq teatri aktyorini o‘qitish, tarbiyalash va shakllantirish jarayonlarni ham katta teatrlarga kadrlar tayyorlashdan ayrim jihatlari bilan keskin farqlanib turadi. Shu ayrim jihatlari ifodasi zamirida qo‘g‘irchoq teatri aktyorini tarbiyalashda ijodiy jarayonini texnik va texnologik tomonlari bilan yaxlit holda to‘ldiradigan tasavvur yashirilgan. Qo‘l harakati - qo‘g‘irchoq teatri aktyori ijodi mohiyatini tashkil etadi. Ayniqsa, qo‘llarni professional harakat qila boshlashi - qo‘g‘irchoqning plastik xatti-harakatlari vositasida rolning ichki va tashqi mazmun mohiyatini ochish garovi hisoblanadi. Qo‘g‘irchoq teatri san‘atida aktyorining fikri-rejalari uning barmoqlari orqali harakat qilib qo‘g‘irchoqda badiiy-sahnaviy yechimni kashf etishi lozim. Bu qo‘g‘irchoq teatr san‘atining asosiy professional talabi hisoblanadi. Xuddi qo‘g‘irchoq aktyori shakllanishida ijro tamoyillari, uslubiyat masalalarini tadbqiq qilish, aktyordan yuksak professionalizm zarur bo‘lgan hozirgi davr uchun dolzarb xususiyatga ega.

Barcha san‘atlar, shu jumladan, qo‘g‘irchoq teatrining ham umumiy maqsadlari bor. U ham bo‘lsa, K.S.Stanislavskiy iborasini qo‘llash joiz bo‘lsa, har bir san‘at turi o‘z ifoda vositasiga tayanib “Inson ruhiyati, hayotini” gavdalantirishdan iborat. Haqiqatdan ham poeziyada va prozada, dramaturgiya va spektakllarda, musiqada, raqsdan, shuningdek, qo‘g‘irchoq teatrida ham turli usullar ila amalga oshadigan badiiy ijod asarlarida inson ruhiyati, hayoti turli tuman shakllarda namoyon bo‘ladi. Inson badiiy ijod jarayonida o‘znini



hayajonlantiradigan, hammavaqt o‘ylantiradigan eng muhim narsa, ya’ni o‘zining insoniylik mohiyatini idrok qilish va ifodalashga intilib yashaydi. Hayotning mazmuni, o‘zining atrof-muhit bilan chambarchas rishtalarini tushunib yetishga va uni badiiy aks ettirishga intiladi. Shuning uchun har bir san’at asari hayotni subyektiv idroki va ijodkorning dunyoni his etishning samarasidir. Avval iqtisod keyin siyosat deganlaridek, qo‘g‘irchoq teatridan ham o‘ziga xos tarzda tijorat maqsadida foydalanish mumkin. Asosan, bolalarning ruhiy olamiga ozuqa beradigan dramaturgiyaning ushbu janri tomoshasi uchun hamma bajonidil pul to‘lashga rozi, desak, mubolag‘a emas. Shunday ekan, qo‘g‘irchoq teatri aktyorlari, tashkil etuvchi xodimlari ushbu janrdan o‘z mahoratlari ila tijoriy maqsadda foydalanishlari mumkin. Bilishimizcha, qo‘g‘irchoq teatrida tijoratlashtirish masalalari allaqachon yo‘lga qo‘yilgan. Va bu qo‘g‘irchoq teatrlari tashkili uchun ma’sullar nazdida o‘z samarasini ko‘rsatib kelmoqda deb umid qilamiz.

Davlatimiz miqyosida ilgari surilayotgan har tomonlama, hech kimdan kam bo‘lmagan farovon hayot qurish uchun intilayotgan xalqimizning madaniyati va san’atining porloq istiqboli, ertangi kun, hammamizga yuklatiladigan qo‘g‘irchoq teatri maktabining qirralarini chuqur o‘rganishimiz, o‘zlashtirishimiz, ijodimizga tadbiq qilishimiz zarur. Qo‘g‘irchoq teatri teatr san’atining eng qadimiy turlaridan biridir. Bizga ma’lumki, milliy qo‘g‘irchoq teatri tarixi juda ham uzoq o‘tmishlarga borib taqaladi. Mana shu milliy qo‘g‘irchoq teatri shakl va tamoyili bilan oddiy xalqni o‘ziga jalb qila olgan. Qo‘g‘irchoq teatri- bu shunchaki tomosha, shunchaki ermak o‘yin emas, balki butun bir xalqning falsafasi, dini, adabiyoti, folklori, tasviriy san’ati va albatta tillari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan muhim tarixiy hodisadir. Qo‘g‘irchoq teatri, san’atining ajoyib, ta’sirchan turlaridan biridir. Uning jozibadorligi, tomoshaviyligi qandaydir sodda-go‘zalligi “mo‘jizali” tabiatga ega ekanligidadir. Darhaqiqat, jonsiz, zabonsiz oddiy qo‘g‘irchoqlar vositasida inson hayoti, munosabatlari, axloqi, odatlarini badiiy haqqoniy va jozibali qilib namoyish etish mo‘jizaga o‘xshaydi. Qo‘g‘irchoqboz bamisoli mo‘jizakordir. Qo‘g‘irchoq teatrining sharti shu kasbni sevsang, ovozing jarangdor va mahorating zo‘r bo‘lsa xohlagan rolingni o‘ynayver. Iste’doding, ijodiy harakating va shavqing bo‘lsa bas! Ikkitagina qo‘g‘irchoqboz muvaffaqiyati bilan ko‘plab qahramonli katta spektaklni namoyish qilish mumkin.



Bugungi kunga kelib qo‘g‘irchoq aktyorlarini yetishtirib beruvchi O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutida mahorat predmeti bilan birga qo‘g‘irchoq texnologiyasi san‘ati ham alohida o‘rin tutadi. Bunda ustozlarimiz aktyorlik mahorati darsida ko‘proq qo‘g‘irchoqning texnik mukammalligini va undan bahra oladigan darajada ijodiy erkinlikni ta‘minlash, ta‘sirchanligi qudratini oshirish, qo‘g‘irchoq teatri san‘ati ijrochiligida yangi qirralarni kashf etish va zabt etish, ifodalash va ijro imkoniyatlarini rang-barangligini, mustahkamlash va boyitish, diqqat, iroda qudratini mustahkamlab borish, jonsiz predmet bilan oshno bo‘la bilish, uni sevishtirish, chuqur his eta olish, betakrorlik, xotirani chiniqtirish mashqlari, talaffuzni tozaligi, ovoz jarangini sozlash mashqlariga alohida e‘tibor bergan holda ish olib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov M. Tomosha san‘ati o‘tmishidan lavhalar. – T.: Fan, 1993.
2. Toychiyeva N. Qo‘g‘irchoq teatrida obraz yaratishning o‘ziga xos xususiyatlari. Toshkent. 2021.
3. Mirsaidova N. Qo‘g‘irchoq boshqarish asoslari. Toshkent. 2014.